

## ARAB FAYLASUFI AL-KINDIY HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

Anvarov Sunnatillo Doniyorjon o'g'li

**Antonatsiya:** *Metafizik va faylasuf, olim Al-Kindiy hayoti va faoliyati, falsafiy-axloqiy, antologik va diniy qarashlari.*

**Kalit so'zlar:** *Al-Kindiy, 4 unsur, fazo, vaqt, materiya, shakl, harakat, olov, havo, suv, tuproq, substansiya, metafizika, borliq, Aristotel, sharq aristotelchiligi, unsurlar.*

Abu Yusuf Yoqub ibn Ishoq al-Kindiy 800-yilda Basrada tug'ilgan 870-yilda Bag'dodda vafot etgan arab faylasufidir. Sharq aristotelizmi asoschilaridan. Mu'taziliylar bilan yaqin aloqada bo'lgan. Xalifa Mutavakkil (847—861)ning ratsionalistlar bilan kurashi vaqtida quvg'inga uchragan. Yunon mutafakkirlarining risolalarini arab tiliga tarjima qilgan, Aristotelning "Kategoriyalar", "Ikkinchi analitika", Yevklidning "Unsurlar" va Ptolemeyning "Almagest" asarlariga sharhlar yozgan. Kindiyning fikricha, olamning yaratuvchisi Alloh, u abadiy mavjud va yagona. Tabiatdagi narsalar o'zaro sababiy bog'langan, ular 4 unsur — olov, suv, havo va tuproqdan iborat. Kindiy 5 ta substansiya — fazo, vaqt, materiya, shakl va harakatning mavjudligi haqida, dunyoni bilish mumkinligi haqida fikr yuritgan. Kindiy asarlarining aksariyati bizgacha yetib kelmagan, faqat 29 risolasi topilgan, ularning ko'pchiligi riyoziyot, mantiq, falsafa va boshqa fanlarga bag'ishlangan. Kindiyning falsafiy qarashlari keyingi davrlarda Sharq mutafakkirlari dunyoqarashiga, o'rta asr Yevropa falsafasi rivojiga samarali ta'sir ko'rsatgan.

Arab falsafasi mutaxassislarining fikricha, garchand musulmon Sharqida juda ko'p yirik mutafakkirlar o'tgan bo'lsa ham, „faylasuf“ degan nomga faqat al-Kindiy musharraf bo'lgan, xolos. Al-Kindiy falsafa bilan fan o'rtasidagi tortishuvni falsafa foydasiga hal qiladi. U falsafa fanining zarurligini isbot qilishga urinib, uni borliqni bilishning muhim quroli, hatto falsafaning dushmanlari ham falsafaga muhtojdirlar, deb uqtiradi. Al-Kindiy falsafaning zarurligini uqtiribgina qolmay, uning vazifasi nimadan iborat, inson o'z aqli, idroki bilan narsa va hodisalarning asl mohiyatini bilishga qodirmi, degan savollarga ham javob berishga harakat qiladi. „Falsafa, — deydi u, —narsa va hodisalarning mohiyatini, asosiy sabablarini tekshiradi, no'malum haqiqatning sababini topish orqaligina, uning mohiyatini bilish mumkin“.



Al-Kindiyning fikricha, olam to'g'risidagi butun haqiqatni bir mutafakkirning o'zi to'liq tushunib, egallab yetolmaydi. Haqiqat necha-necha asrlar davomida, qanchadan-qancha mutafakkirlar tomonidan to'planib kelingan bilimlar majmuasidan iborat. Bir odamning umri qancha uzun, aqli teran, ilmiy izlanishlari chuqur bo'lmasin, ko'p mehnat qilmasin, baribir, olam to'g'risidagi bor haqiqatning hammasini to'liq anglab yetolmaydi. „Buning uchun, — deydi u, — yuzlab, minglab yillar, necha-necha avlodlarning matonatli izlanishlari, o'tkir fikrlari zarur bo'ladi. Shu tufayli biz biroz bo'lsa-da, haqiqatni bizga bildirib ketgan o'tmishdoshlarimiz, ota-bobolarimizdan minnatdor bo'lmog'imiz lozim“, — degan xulosaga kelgan. Al-Kindiy o'z qarashlarida, olam markazida Yer turadi, u esa osmon gumbazi bilan o'ralgan, deydi. U dunyoni ikki olamga — Yerdagi va falakdagi, olamlarga bo'ladi, Inson yashaydigan Yerdagi olam o'zgarish — rivojlanish, chirish va o'lish kabi xususiyatlarga ega. Falakdagi olam esa, o'zining o'zgarmasligi, rivojlanmasligi, chirimasligi va o'lmasligi bilan farq qiladi. Al-Kindiy olamning vujudga kelishida va harakatlanishida unga turtki bergan birinchi sabab deb Allohni tushunadi. Uning fikricha, Alloh azaliy, abadiy, yakka-yu yagonadir, butun koinotdagi umumiy tartibotning o'rnaturvchisidir. Al-Kindiyning arab falsafasida sharq aristotelchiligi paydo bolishidagi roli g'oyat kattadir. U Arastu falsafasini juda yaxshi bilgan va, hatto uning ba'zi bir g'oyalariga tanqidiy yondashgan. U Arastuning 10 ta kategoriyasi o'rniga o'zining 5 ta parasubstansiyasini (materiya, shakl, harakat, makon va zamonni) ilgari surgan. Uning nuqtayi nazaricha, tabiatdagi barcha narsalar materiyadan tashkil topgan. Materiya esa to'rt unsur: olov, suv, havo va tuproqdan iboratdir. Materiya doimiy harakatda,, harakat esa narsalaming bir turdan ikkinchi turga o'tishidan iborat. Bu, o'z navbatida, o'zgarishlarga olib keladi. Harakatni u olti turga bo'ladi: 1) paydo bo'lish; 2) yo'q bo'lish; 3) uzayish; 4) qisqarish; 5) o'zgarish va nihoyat, 6) siljish. Vaqt harakatning sekin va tezligidan iborat bo'lib, u o'tgan zamon va kelgusi zamonni bog'laydi. Materiya shaklga ham ega. Faqat shakliy tafovut materiyani (xayulo) makon atributi ekanligini ham e'tirof etadi. Makon deb, jismni o'z ichiga oladigan, jismdan tashqaridagi sathga aytamiz. Makon bilan uni to'ldirib turadigan narsa bir-biriga bog'liq. Agar makon bo'lsa, uni to'ldiruvchi biron narsa bo'lishi kerak va aksincha, degan xulosaga kelgan. Al-Kindiyning falsafiy qarashlarida dunyoni ilmiy bilishning uch bosqichi haqidagi ta'limoti ham muhim o'rin tutadi. Bunda bilishning birinchi bosqichi mantiq va matematika yordamida yuzaga kelsa, tabiatshunoslik bilimlari orqali inson bilishning ikkinchi bosqichiga ko'tariladi. Inson bilishning uchinchi bosqichiga esa, metafizika (falsafa) orqali ko'tariladi.



U o'zidan oldin o'tgan olimlar va zamondoshlarining qarashlarini umumlashtirib, tanqidiy ravishda qayta ishlab chiqqan, qadimgi faylasuflar, xususan, yunon falsafasining durdonalari bilan butun kelgusi avlodlarni bahramand qila olgan qomusiy mutafakkirdir.

### XULOSA

Kindiyning fikriga ko'ra, g'azabning kuchi tanaga tegishli kuchdir. Shu sababli, ba'zan odamlarni yomonlikka olib kelishi mumkin. Ammo aql uni nazorat qiladi va

u olib keladigan yomonlikning oldini oladi. G'azabning kuchi aql tomonidan o'rgatilgan va muvozanatda bo'lishi kerak. Kindi odamlardagi g'azabning kuchiga e'tibor bermaslik o'rniga, uni aql nazorati ostida ushlab turish orqali muvozanatni

saqlash kerakligini ta'kidlaydi. Chunki g'azab kuchining haddan tashqari ko'pligi fazilatning kamligidir. Inson borligidanoq baxtli bo'lishni maqsad qilgan.

Buning yo'li - bilim va harakatning yaxlitligida axloqiy hayot kechirishdir. Insonlarni ma'naviy jihatdan yuksaltiruvchi axloq barcha faylasuflar

asarlarining mavzusi bo'lib kelgan. Kindi insonning jon va tanadan iborat ekanligiga asoslanib, baxtga asoslangan axloq tushunchasini ilgari suradi. Ruh va tana o'rtasidagi munosabatni to'g'ri asoslab bergan kishi ruhning doimiy, tananing esa vaqtinchalik ekanligini biladi. Al-Kindi falsafasida axloqning maqsadi baxt sifatida namoyon bo'ladi. Ammo uning fikricha, bu dunyoda hech kim to'liq baxtga erisha olmaydi. Baxtga oxiratda to'liq erishiladi. Bu dunyoda faqat baxtga o'shah lazzatlarga erishish mumkin. Bu faylasuflarni baxtni ikkiga bo'lishga olib keldi: hissiy va ilohiy. Kindi baxtga erishishning birinchi sharti aqlni ishlatishdir, deb taklif qiladi. Chunki aql bizni doimiy narsalarga yo'naltiradi

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jonmatova X. A., Al-Kindiy (hayoti va ijodi), T., 1967.
2. <https://fayllar.org/al-kindiyning-fikricha-olam-togrisidagi-butun-haqiqatni-bir-mu.html>
3. , “Nefis Üzerine”, Kindî Felsefî Risaleler, ed. Mahmut Kaya, 3. b., İstanbul: Klasik Yayınları, 2014, ss. 244 – 251.
4. “Oluş ve Bozuluşun Yakın Etkin Sebebi Üzerine”, Kindî Felsefî Risaleler, ed. Mahmut Kaya, 3. b., İstanbul: Klasik Yayınları, 2014, ss. 208 – 228.

